

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

**60110800 - Ona tili va adabiyoti bakalavriat  
ta'lim yo'naliшining**

**MALAKA TALABI**

Toshkent-2024



**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**  
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**  
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil «25» 06 dagi 218-sonli buyrug'i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda  
Maktabgacha va mакtab ta'lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar ta'lim vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r	bet
<b>1. Umumiy tavsifi .....</b>	<b>4</b>
1.1. Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari.....	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari .....	5
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4. Kasbiy vazifalar .....	5
<b>2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar .....</b>	<b>7</b>
<b>3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....</b>	<b>8</b>
<b>4. Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>	<b>9</b>
<b>Bibliografik ma'lumotlar.....</b>	<b>10</b>
<b>Kelishuv varog'i .....</b>	<b>11</b>

## 1. Umumiy tavsifi

60110800-Ona tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi shaklda amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### 1.1. Qo'llanish sohasi.

#### 1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 60110800-Ona tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha barcha uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### 1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilotlar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

## 1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.

### 1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari

umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi kasb standartiga muvofiq umumiy o'rta ta'limda ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi maqomida pedagogik faoliyat olib borish;

o'rta maxsus va professional ta'limda ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi sifatida pedagogik faoliyat olib borish;

nashriyot va ommaviy axborot vositalarida muharrir va korrektor sifatida ishslash.maktabdan tashqari ta'limda uslubchi, to'garak rahbari sifatida pedagogik faoliyat olib borish;

umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori kasb standartiga muvofiq ta'lim muassasasini boshqarish;

umumiy o'rta ta'lim maktabi, professional ta'lim muassasalari, oliy ta'lim muassasalarida kabinet mudiri, tyutor, metodist, arxiv xodimi, axborot-resurs

markazi xodimi sifatida faoliyat yuritish;

nashriyot va ommaviy axborot vositalarida muharrir va korrektor sifatida ishslash kabi kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

umumiyl o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida;

Maktabgacha va muktab ta'limi vazirligi tizimidagi idoralarda;

ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida;

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida;

ommaviy axborot vositalarida;

davlat boshqaruva organlarida.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *pedagogik;*
- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ma'naviy-ma'rifiy;*
- *tashkiliy-boshqaruva.*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

60110800-Ona tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Pedagogik faoliyatida:**

**o'quv jarayonini rejalshtirish:** DTS va O'D larining maqsadlariga muvofiq o'quv reja ishlab chiqish, o'quvchilarning extiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o'quv dasturlarini moslashtirish, darsning aniq maqsad va natijalariga ko'ra dars rejasini ishlab chiqish, differensial yondashuv asosida dars shakllari va usullarini rejalshtirish, o'quv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni rejalshtirish;

**ta'lim samaradorligini ta'minlash:** dars maqsadlariga ko'ra o'quvchilar imkoniyatidan kelib chiqib vazifalarni belgilash, dars mavzusiga mos namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish, darsda vaqt taqsimotini to'g'ri rejalshtirish, ta'lim jarayonida AKTdan unumli foydalanish, o'quvchilarning o'zlashtirish natijalariga ko'ra darsni tashkil etish va ta'lim berishdagi yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish, o'quvchilarning ta'limiy maqsadlari va yosh xususiyatlariga mos keladigan o'qitish usullari va yondashuvlarni tanlash, o'qitishning faol usullaridan foydalanish, o'quvchilarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan usullardan foydalanish, o'quvchilarning jamoaviy va loyixaviy ishlarini tashkil etish, o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalaridan foydalanish, o'quvchilarga differensial yordam berish, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, o'quvchilarni mustaqil fikrlash imkoniyatini yaratish, darsda motivatsiyaga erishish, sinfda samarali muloqotga erishish;

**o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish:** ta'lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lim natijalarini diagnostika qilish uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lim natijalarini taxlil qilish, dars rejasi va usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanish, baholash mezonlarini bilishi va amalda qo'llay olishi, mavjud muammolarni aniqlay olishi va tahlil qilish;

**tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish:** tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, interaktiv shakl va usullarini mashg'ulot hamda sinfdan tashqari ishlarda qo'llash, tarbiyaviy ishlarda o'quvchilarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini inobatga olishi, ta'lim muassasasining ustavi va ichki tartib qoidalariga muvofiq o'quvchilar uchun aniq odob-axloq qoidalarini o'rnatish, ijtimoiy sog'lom muxitni yarata olish, o'quvchilarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqati, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish;

**xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash:** O'quvchilar orasida o'zaro hurmat muhitini yaratish, o'quvchilarga sinf hayotida teng imkoniyatlar yaratса, nizoli vaziyatlarda optimal áchimli qaror chiqara olishi, o'quvchilar bilan individual ishlar olib borishi, zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz ishslashga yordam bera olish;

**o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish:** muntazam malaka oshirish kursaridan o'tish, fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash, kasbiy faoliyat yuzasidan seminar va treninglarda ishtiroy etish hamda tashkil etish, o'zaro darslarda qatnashish, darslarni tahlil qilish, ochiq darslar o'tkazish, kasbiy faoliyatda kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish;

**hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan hamkorlik o'rnatish:** o'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) ta'lim jarayoniga maktab hayotiga jalg qilish, o'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) o'quvchilarni rivojlanishi va ta'lim muhiti to'g'risida qaror qabul qilishda ishtiroy etishga jalg etish, tarbiyaviy muammolarni hal qilishda va o'quvchilarni hayotga tayyorlashda boshqa pedagogik xodimlar va mutaxassislar, jamoat tashkilotlari va bo'limlari bilan hamkorlik qilish;

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

ona tili va adabiyoti sohasida ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishidagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;

ona tili va adabiyoti fanlariga doir internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish hamda amaliyotga bevosita tadbiq etish;

ona tili va adabiyoti o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;

ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;

ona tili va adabiyoti va uni o'qitish metodikasiga doir tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

### **Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:**

o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;

globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:**

pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalangan holda ta'lif jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda to'g'ri qaror qabul qilish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo'lish.

## **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.**

og'zaki va yozma shaklda ona tili va davlat tili qoida va me'yorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g'oya, taklif, ta'rif va xulosalarni mantiqiy, to'g'ri, asosli, izchil va aniq bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishlash hamda ifodalay olishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish hamda kasbiy faoliyati uchun åtarli darajada undan foydalana olishi;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko'rib chiqish, o'z-o'zini rivojlantirish,

malaka oshirish va o'z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakteristikasini o'zgartirishga qodir bo'lishi;

gigiyena, mehnat muhofazasi va tashqi ta'sirlardan himoya qilish qoidalari talablariga muvofiq, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishga qobiliyatlik;

axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilish va vositalaridan foydalanish, faoliyatida mustaqil qarorlar qabul qila olishni hamda mediasavodxonlik, global kompyuter tarmoqlar bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal etishda umumkasbiy va mutaxassislik fanlarning asosiy qoidalari va metodlaridan samarali foydalana olish;

shaxsiy o'sishga intilishni shakllantirish va obyektiv baholash, shuningdek, ta'lif oluvchilarning intellektual rivojlanish darajasini oshirish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, ilmiy bilish yutuqlariga erishish tamoyillarini anglashi hamda tanqidiy fikrlash metodikasini o'zlashtirishi;

ta'lif jarayoni subyektlarining birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyati va shaxslararo o'zaro harakatini tashkil etish usullarini egallash;

ona tilida o'z fikrlarini tizimli va erkin bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishlash, ommaviy nutq so'zlash uchun ona tili va chet tillaridan birida yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini egallaganlik;

*Mr. J. Sosov*

kasbiy vazifalarni hal etishda fanlararo bog'liqlikni amalga oshirish, shuningdek, nazariya va amaliyat uyg'unligini, uzviylik va uzlusizligini ta'minlash;

o'quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish;

jamiatning ijtimoiy-madaniy tuzilmasining o'ziga xosliklari, shuningdek, milliy tarbiyaning qonuniyat va tamoyillarini hisobga olgan holda, ko'pmadaniyatlilik muhitida kasbiy faoliyatni tashkil etish usullarini egallashi;

inklyuziv ta'limga qadriyatli munosabatning tarkib topganligi; uzoq vaqt davolanishga muhtoj o'quvchilar bilan ishlash (gospital pedagogika) texnologiyasiga ega bo'lishi;

ta'lim oluvchilarga o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanlikka doir kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga imkon beradigan natijaviylik va mobillikka yo'naltirilgan o'qitishga qobiliyatatlilik.

### **3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

Kunduzgi ta'lim shaklida tahsil oluvchi talabalarning 4+2 tartibdagi malakaviy amaliyoti 3-8-semestrlarda amalga oshiriladi. Bunda haftaning 4 kuni nazariy va amaliy ta'lim, 2 kuni umumiyl va o'rta ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. o'quv tanishuv amaliyotlari
2. pedagogik amaliyot
3. malakaviy amaliyot

#### 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

<b>Umumiy majburiy fanlar*</b>					
1.01	PSY11210	Umumiy psixologiya	300	10	1, 2
1.02.	O'EYT1105	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.03.	MSVAX1105	Mediasavodxonlik va axborot madaniyati	150	5	1
1.04.	O'RT1206	Amaliy o'zbek (rus) tili. Davlat tilida ish yuritish	180	6	2
1.05.	FAL1204	Falsafa	120	4	1
1.01.	PED13408	Umumiy pedagogika	240	8	3,4
1.02.	InkT.GP1304	Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika	120	4	3
1.03.	DIN1404	Dinshunoslik	120	4	4
1.03.	UTTVZY1805	Uzluksiz ta'limdagি tendensiyalar va zamonaviy yondashuvlar	150	5	8
		<b>жами:</b>	<b>1500</b>	<b>50</b>	
<b>Qozoq tili va adabiyoti fani yo'nalishi</b>					
1.06.	TilAs1106	Tilshunoslik asoslari	180	6	1
1.07.	AdAs1105	Adabiyotshunoslik asoslari	150	5	1
1.08.	HozQAT12345620	Hozirgi qozoq adabiy tili	600	20	2,3,4,5,6
1.09.	XOI1204	Xalq og'zaki ijodi	120	4	2
1.10.	QozAT12345620	Qozoq adabiyoti tarixi	600	20	2,3,4,5,6
1.11.	QozTilP1204	Qozoq tili praktikumi	120	4	2
1.04.	QozD1305	Qozoq dialektologiyasi	150	5	3
1.03.	JahAd15608	Jahon adabiyoti	240	8	5,6
1.04.	QTilAdO'M15610	Qozoq tili va adabiyotini o'qitish metodikasi	300	10	5,6
1.01.	Util1706	Umumiy tilshunoslik	180	6	7
1.02.	Abaysh1806	Abayshunoslik	180	6	8
		<b>Jami:</b>	<b>2820</b>	<b>94</b>	
2.00.		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	3-8
2.00.		Tanlov fanlar	1800	60	3-8
<b>Kvalifikatsiya:</b>					
		Qozoq tili va adabiyoti fani o'qituvchisi.			
		<b>Jami:</b>	<b>6120</b>	<b>204</b>	
		Malakaviy amaliyot	1080	36	2, 3-8
		<b>JAMI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	
<b>Rus tili va adabiyoti fani yo'nalishi</b>					
1.06	RusXOI1206	Rus xalq og'zaki ijodi	180	6	2
1.07	MK1105	Mutaxassislikka kirish	150	5	1
1.08	RusTP11211	Rus tili praktikumi	330	11	1,2
1.09	AK1205	Adabiyotshunoslikka kirish	150	5	2
1.13	RusTS1305	Rus tili stilistikasi	150	5	3
1.14	RusAT13408	Rus adabiyoti tarixi I	240	8	3,4
1.15	HozRTTA13408	Hozirgi rus tili	240	8	3,4

		tilshunoslik asoslari bilan I			
1.16	ChetEAT14508	Chet el adabiyoti tarixi	240	8	4,5
1.17	RTOM1604	Rus tili o'qitish metodikasi	120	4	6
1.18	HozRTTA15609	Hozirgi rus tili tilshunoslik asoslari bilan II	270	9	5,6
1.19	RusAT15608	Rus adabiyoti tarixi II	240	8	5,6
1.21	RAO'M1706	Rus adabiyotini o'qitish metodikasi	180	6	7
1.22	HozRTTA1706	Hozirgi rus tili tilshunoslik asoslari bilan III	180	6	7
1.23	HAJ1705	Hozirgi adabiy jarayon	150	5	7
		Jami:	2820	94	
2.00		Tanlov fanlari	1800	60	
2.00		Tanlov fanlar	1800	60	
<b>Kvalifikatsiya</b>		Rus tili va adabiyoti o'qituvchisi.			
		Jami:	6120	204	
		Malakaviy amaliyot	1080	36	2,3-8
		Jami:	7200	240	
<b>1.00</b>	<b>Qirg'iz tili va adabiyoti fani yo'naliishi</b>				
1.06.	TilAs1106	Tilshunoslik asoslari	180	6	1
1.07.	AdAs1105	Adabiyotshunoslik asoslari	150	5	1
1.08.	HozQAT12345620	Hozirgi qirg'iz adabiy tili	600	20	2,3,4,5,6
1.09.	XOI1204	Xalq og'zaki ijodi	120	4	2
1.10.	Qirg'AT12345620	Qirg'iz adabiyoti tarixi	600	20	2,3,4,5,6
1.11.	Qirg'TilP1204	Qirg'iz tili praktikumi	120	4	2
1.15.	Qirg'D1305	Qirg'iz dialektologiyasi	150	5	3
1.16.	JahAd15608	Jahon adabiyoti	120	4	5
1.17.	O'zAd15608	O'zbek adabiyoti	120	4	6
1.18.	QTilAdO'M15610	Qirg'iz tili va adabiyotini o'qitish metodikasi	300	10	5,6
1.20.	Util1706	Umumiy tilshunoslik	180	6	7
1.21.	Aytmatovsh1806	Aytmatovshunoslik	180	6	8
		Jami:	2820	94	
2.00.		Tanlov fanlari	1800	60	3-8
2.00.		Tanlov fanlar	1800	60	3-8
<b>Kvalifikatsiya:</b>		Qirg'iz tili va adabiyoti fani o'qituvchisi.			
		Jami:	6120	204	
		Malakaviy amaliyot	1080	36	2, 3-8
		JAMI	7200	240	
<b>Qaraqalpaq tili hám ádebiyatı tálim baǵdarı</b>					
1.06.	TBT1106	Til bilimi tiykarları	180	6	1
1.07.	AdT1105	Ádebiyattanıw tiykarları	150	5	1
1.08.	HázQQÁT12345620	Házirgi qaraqalpaq	600	20	1,2,3,4,5,6

		ádebiy tili			
1.09.	XAwD1204	Xalıq awızekи dóretiwshiligi	120	4	2
1.10.	QQÁT12345620	Qaraqalpaq ádebiyatı tariyxı	600	20	2,3,4,5,6
1.11.	QQTilP1204	Qaraqalpaq tili praktikumi	120	4	2
1.04.	QQD1305	Qaraqalpaq dialektologiyası	150	5	3
1.03.	JahÁd15608	Jáhán ádebiyatı	240	8	5,6
1.04.	QQTHÁOM15610	Qaraqalpaq tili hám ádebiyatın oqıtıw metodikası	300	10	5,6
1.01.	UtilB1706	Ulıwma til bilimi	180	6	7
1.02.	UBMÁDÚ1806	Ulıwma bilim beriw mekteplerinde ádebiy dóretiwshilikti úyretiw	180	6	7
		<b>Jami:</b>	<b>2820</b>	<b>94</b>	
2.00.		Tańlaw pánneri	1800	60	3-8
2.00.		Tańlaw pánneri	1800	60	3-8
<b>Kvalifikaciya:</b>		Qaraqalpaq tili hám ádebiyatı páni oqıtıwshısı			
		<b>Jámi:</b>	<b>6120</b>	<b>204</b>	
		Qánigelik ámeliyat	1080	36	2, 3-8
		<b>JÁMI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

**Túrkmen tili hám ádebiyatı páni baǵdarı**

1.06.	TilAs1106	Til bilimi tiykarları	180	6	1
1.07.	AdAs1105	Ádebiyattanıw tiykarları	150	5	1
1.08.	Hoz TAT12345620	Házirgi túrkmen ádebiy tili	600	20	2,3,4,5,6
1.09.	XOI1204	Xalıq awızekи dóretiwshiligi	120	4	2
1.10.	TúrkmenAT12345620	Túrkmen ádebiyatı tarixı	600	20	2,3,4,5,6
1.11.	TúrkmenTilP1204	Túrkmen tili praktikumi	120	4	2
1.04.	TúrkmenD1305	Túrkmen dialektologiyası	150	5	3
1.03.	JahAd15608	Jáhán ádebiyatı	240	8	5,6
1.04.	TTilAdO'M15610	Túrkmen tili hám ádebiyatın oqıtıw metodikası	300	10	5,6
1.01.	Util1706	Ulıwma til bilimi	180	6	7
1.02.	Maktsh1806	Maqtımqulitanıw	180	6	8
		<b>Jámi:</b>	<b>2820</b>	<b>94</b>	
2.00.		Tańlaw pánneri	1800	60	3-8
2.00.		Tańlaw pánneri	1800	60	3-8
<b>Kvalifikatsiya:</b>		Túrkmen tili hám ádebiyatı páni oqıtıwshısı.			
		<b>Jámi:</b>	<b>6120</b>	<b>204</b>	
		Qánigelik ámeliyat	1080	36	2, 3-8
		<b>JÁMI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

\*- Mazkur ta'lim yo'naliishlari o'quv rejalarining tanlov fanlari qismiga "Kasbiy sohada xorijiy tillar (ECTS)" fani majburiy tarzda kiritiladi.

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 49.4:894.341

---

### Tayanch so'zlar:


Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv reja, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat obyekti, pedagog, ona (qozoq, rus, qoraqalpoq, qirg'iz, turkman) tili va adabiyoti, ona (qozoq, rus, qoraqalpoq, qirg'iz, turkman) tili va adabiyoti fani o'qituvchisi, umumiyl tilshunoslik, hozirgi adabiy til, adabiyotshunoslik asoslari, adabiyot tarixi, xalq og'zaki ijodi, ona (qozoq, rus, qoraqalpoq, qirg'iz, turkman) tili va adabiyotini o'qitish metodikasi, majburiy fanlar, tanlov fanlari, 4+2 amaliyat, kasbiy faoliyat turi, amaliyat, amaliyat obyekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi

**Kelishuv varag'i**

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lif muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari**

**ISHLAB CHIQILGAN:**

**Nizomiy nomidagi Toshket davlat pedagogika universiteti**

Rektor  A.Kirgizbayev

2024-yil «20» 06  
M.O.

**KELISHILDI:**

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'lifni  
rivojlantirish tatqiqotlari markazi  
Direktor  M.Boltabayev  
2024-yil «25» 06  
M.O.

O'zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab ta'lifi ta'lif  
vazirligi huzuridagi  
Respublika ta'lif markazi  
Direktor  Sh.Xudaykulov  
2024-yil «20» 06  
M.O.

Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Rektor  Sh.Sharipov  
2024-yil «20» 06  
M.O.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Rektor  G.Muxamedov  
2024-yil «20» 06  
M.O.